
Targ'ibot tadbirlari o'tkazildi

Bugun Farg'ona shahrida "Ayoli e'zozlangan yurt" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbiri o'tkazildi.

"Yangi Konstitutsiya - xalq dardiga quloq soluvchi davlat asosi!" shiori ostidagi ostida shahrimizdagi "Ma'rifat" mahalla fuqarolar yig'inida o'tkazilgan targ'ibot tadbirlarida xotin-qizlar faollari, "Oqila ayollar" harakati a'zolari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining mazmun va mohiyati haqida batafsil tushunchalar berdilar.

Tadbir davomida viloyatimizning xushovoz xonandalari tomonidan dilrabo kuy-qo'shiqlar ijro etildi. Ishtirokchilar madaniy dastur orqali maroqli xordiq chiqardilar.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-04-08 17:58:49